

**MARKAZIY OSIYO MUSIQIY FOLKLORSHUNOSLIGI ILMIY
SOHASI BO'YICHA TADQIQOTLAR TAHLILI**

Yusupova Lazizaxon Azim qizi

TDPU "Musiq madaniyati" fakuleti 202-guruh talabasi

U.Yu.Yuldoshev

Ilmiy rahbar, TDPU "Musiq nazariyasi va metodikasi" kafedrasi dotsenti, PhD

***Annotatsiya.** Maqolada Markaziy Osiyo musiqiy folklorshunosligi janrining ilmiy sohasi bo'yicha tadqiqotlar tahlil qilingan bo'lib, Turk folklorshunosligi musiqasida xalqlarning yashash tarzi, dunyoqarashi, armonlari va o'ylari kabi psixologik xususiyatlari ifodalangan.*

***Kalit so'zlar:** YUNESKO, pedagogika, O'zRFA, folklore, g'oyaviy-badiiy, O'sh va O'zgan, qo'shiq, kompozitsiya, etnograf, tarix, joziba.*

Markaziy Osiyo xalqlarining juda boy musiqiy merosi va qadimgi tarixi mavjuddir. Ular hozirgacha o'zining badiiy va estetik qiymatini asrab kelmoqda. Olimlar o'zlarining asarlarida an'ana yangi zamon hamda uzoq o'tmish musiq madaniyatini birlashtirib turishi bilan uni ilhomlantiruvchi quvvatdir deb takidlaganlar. Markaziy Osiyo hududida yashovchi xalq musiqalarining tarixi noyob hodisa va boy an'analarga egadir. U barcha musiq madaniyatlari ichida o'zining munosib o'rnini egallagan. YUNESKOning "Nomoddiy madaniy meros durdonalari" qatoriga Markaziy Osiyoda yashovchi xalqlarni juda ko'p yutuqlari kiritilgan.

Markaziy Osiyo sub-mintaqadir. Mintaqa o'z ichiga sobiq sovet davlatlari bo'lmish Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekistonni oladi. Ushbu besh respublika nomidagi o'xshashliklar tufayli mintaqadan tashqarida (asosan G'arbda) mintaqa davlatlari umumiy tarzda 'stan' davlatlari deb ham www.pedagoglar.org

yuritiladi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini xalq qo'shiqchilik ijodiyoti asosida kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishga yo'nalgan ilmiy tadqiqotlar dunyoning etakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, Budapesht davlat universitetida (Vengriya), Frayburg universiteti (Germaniya), Boku pedagogika universiteti (Ozarbayjon), Xelisinki universiteti (Finlyandiya), Gnesinlar nomidagi Moskva davlat musiqa pedagogika instituti (Rossiya), Janubiy Qozog'iston davlat pedagogika instituti (Qozog'iston), New York University, Stanford University, University of Chicago, Oxford Brookes University, University of Cambridge (Buyuk Britaniya), University of Munster (Germaniya), Wageningen University and Reserch Center (Niderlandiya), the Korean (Janubiy Koreya), Singapore Management University (Singapur), National Adviceon pedagogical technology (Angliya)da musiqa o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish masalalari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. [6.].

Ushbu tadqiqot natijasida o'qib, izlanib, o'z ustilarida ishlayotgan o'qituvchilarga juda keng imkoniyatlar yaratilib ularning ijodlarini yuqori baholab uni yanada rivojlantirishga qaratilgan say harakatlar olib borilayotganini bilishimiz mumkin.

1992-yilda Turkmaniston Respublikasining Oshiq Oydin Pir qadamjosida o'tkazilgan xalqaro baxshi-shoirilar tanlovida qatnashib g'oliblikni qo'lga kiritdi. Jamoa „Tabiat-96" viloyat Lonk-tanlovida maxsus diplom olishga sazovor bo'ldi. [1.].

Ushbu diplom Turkmaniston Respublikasini folklor yo'nalishini rivojlanayotganiga yaqqol misolidir.

O'zbek folklorini to'plash, nashr etish, tadqiq etishga katta hissa qo'shgan olim Z.Husainova 1951-yildan buyon O'zRFA Til va adabiyot institutining folklore ekspeditsiyasi safida respublikamizning barcha viloyatlarida, Janubiy Tojikiston va O'shda bo'lib, xalq og'zaki ijodiyotining qo'shiq, maqol, topishmoq, ertak, latifa kabijanlariga doir matnlarni to'plagan. [7.].

Folklor asari og'izdan-og'izga o'tishi tufayli shaklan va mazmunan qandaydir

o'zgarishga uchrashidan qat'iy nazar, bu hol uning g'oyaviy-badiiy, ijtimoiy-estetik qimmatini tushirmaydi. Chunki unda ijodkor xalqning voqelikka munosabati aks etgan. Folklor asarlarining og'izdan og'izga o'tib, uzoq asrlar davomida yashab kelayotganligining asosiy sababi shunda.

Xalq folklor musiqasining asosiy xususiyatlaridan biri: folklor musiqasini xalq yaratadi, xalq tomonidan ijro etiladi va tinglanadi. Lekin folklor musiqasining ham bilimdon ijrochilari bo'lib, xalq orasida ular laparchi, yallachi kabi nomiarbilan atalib kelinadi. [2.].

Folklor musiqasining ijodida va ijrosida ma'lum bir janrga kiruvchi xususiyatlari mavjuddir.

Qozog'iston Respublikasining Turkiston, Qirg'iziston Respublikasining O'sh va O'zgan, Tojikiston Respublikasining janubiy hududlariga folklor ekspeditsiyalari uyushtirilib, folkloriy jarayonlar faol kuzatildi, folklorga oid xilma-xil janrlar namunalari yozib olindi. [3.].

Qozoq og'zaki ijodi hamda shu bilan birgalikda chizmachilik qozoq musiqasini jadal rivojlantirmoqda. XIX asrning 2-yarimida ko'plab xonanda, sozandalar, professional bastkorlarning ijodi qozoq xalq klassik musiqasiga asos bo'ldi. U davrda olimlar yozishni, o'qishni bilganlar, ba'zilar arab va rus tillarini ham bilgan, ammo asarlarni qog'ozga qayd eta olishmagan.

XIX asrning ikkinchi yarmida Qozog'iston musiqa san'ati Dauletkerey Shygaiuli, Tattimbet Kazangapuly, Yqilas Dukenovich kabi kompozitor va musiqachilar katta hissa qo'shdilar Abay qo'shiqlari qozoq va rus xalqlari o'rtasidagi qardoshlik do'stligini mustahkamlashga xizmat qildi. Qozoq musiqa madaniyatini o'rganish va targ'ib qilishda qozoq folklorini tinimsiz to'plagan kompozitor Aleksandr Viktorovich Zatayevichning (1869-1936) o'rni katta 1920-yilda Orenburgga kelib, uch yil ichida 1500 dan ortiq qozoq qo'shiq va kuylarini yozib oldi Respublika hukumati A. V Zatayevichning mehnatini yuqori baholadi va 1923-yil 9-avgustda unga Qozoq SSR xalq artisti unvonini berdi. U jami 2300 ta asar, jumladan, uyg'ur, dungan, o'zbek, qoraqalpoq, tatar va koreys milliy musiqalarini yozib olgan Birinchi "Qozoq xalqining 1000 qo'shig'i

to'plami 1925-yilda Orenburgda, ikkinchi to'plami "Qozoq xalqining 500 qo'shig'i va kuyi" 1931-yilda Olmaota shahrida nashr etilgan. U to'plagan qozoq xalqining boy musiqa xazinalari dunyo mamlakatlarini Qozog'istonning betakror musiqa san'ati bilan tanishtirdi. Qozoq qo'shiqlarini yozish paytida G.Rybakov juda ko'p ish qildi. U 100 dan ortiq qo'shiqlarni to'plagan. Qozoq qo'shiqlari orkestr kompozitsiyalarida ham qo'llanilgan.

Turk xalqning musiqasini to'plash va uni o'rganish boshqa janrlarga qaraganda o'zgacha o'rinda turadi. Chunki turk xalq musiqasida xalqning barcha hayoti go'zal tarzda tasvirlanadi.

Turkman an'anaviy musiqasini to'plash va o'rganish alohida masaladir. Bu borada musiqiy etnograf, kompozitor V.A.Uspenskiy va musiqashunos V.M.Belyaevlar ilmiy izlanishlar olib borganlar. Ikki jildlik "Turkman musiqasi deb nomlangan kitoblar V.A.Uspenskiy va V.M.Belyaevlar tomonidan yaratilgan. Bu kitoblarda turkman xalqi musiqasining 352 ta nota namunalari jamlangan. Turkman musiqiy folklorini o'rganish 80-yillarda nisbatan jadal davom ettirildi. Masalan, N.N.Abubakirovaning "G'arbiy Turkmaniston xalq qo'shiqlari (1982), "Turkman baxshilarining san'ati" (1985), M.Gafurovaning "Chorjo'y viloyati turkmanlarining musiqiy merosi" (1992), CH.Jumaevning "Turkman an'anaviy cholg'u musiqasi" deb nomlangan ilmiy ishlarini sanab o'tish joiz.

Turk xalqi ko'p asrlik an'analarga va badiiy merosga egadir. Uning janrlari turli xilligi bilan boshq janrlardan ajralib turadi. Turk musiqasida xalqning yashash tarzi, dunyoqarashi, armonlari va o'ylari tasvirlanadi.

Turkiya Respublikasi e'lon qilinishidan oldin folklor sohasida ilmiy ishlar yakka tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan. 1927 yilda Anqara shahrida Anadolu Folklor Axborot Jamiyati tashkil topdi, keyinchalik turk folklorini o'rganadigan birinchi tashkilot bo'lgan Turk Axborot Jamiyati deb nomlandi. 1964 yilda Folklor ilmiy tadqiqot instituti, 1966 yilda Turk folklor jamiyati tashkil etildi. Ayni paytda Anqara universitetida: Til, tarix va geografiya fakulteti, etnologiya va antropologiya fakulteti mavjud. Folklor Boğaziçi Universitetining folklor klubida, Yaqin Sharq Texnik Universitetida va hokazolarda o'rganiladi. Ammo yaqin

vaqtgacha to'plangan folklor materiallari ilmiy tizimlashtirilmagan.

Qirg'iz xalqining yashash tarzi va ijodi yuzasidan yetarlicha ma'lumotlar mavjud. Ammo uning musiqasi haqida ma'lumotlar yetarli emas. Qizg'iz musiqasiga atalgan birinchi tadqiqotni Aleksandr Viktorovich xalq musiqasining 400 ga yaqin na'munalarini tinglagan holda notaga tushirgan.

Qirg'izistonning Issiq-Ko'l sohilidagi Cho'lpon-Ota shahrida uyushtirilgan va "Meykin Osiyo" deb nomlangan III Xalqaro musiqa festivalining rasmiy ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Festivalda Ozarbayjon, Qirg'iziston, Qozog'iston, O'zbekiston, Vengriya, Turkiya, Shimoliy Kipr Turk Respublikasi (ShKKR), Bosniya va Gersegovina, Rossiya, Bolgariya, Shimoliy Makedoniya, Sloveniya, Serbiya kabi davlatlardan 18-35 yoshdagi iqtidorli yosh xonandalar ishtirok etdi.

Oliy o'quv yurtlaridagi folklore o'qitish kurslari ularni bir butun tahlil qilishga yordam bermaydi. Bu muamo maruzalarning yomoligida emas balki folklorga oid adabiyotlarning folklorning barcha janrlarini o'z ichiga olmaganidadir. Ular mavzularni adabiy nazariy ko'rib chiqishadi natijada folklore atamasida turli bo'shliqlar to'ldirilmay qolib ketadi.

"Folklor nazariyasi" kursi vaziyatni yaxshilashi mumkin. U hech qanday tarzda adabiy kurslarning rejasi va mazmunini takrorlamaydi, balki ularni sezilarli darajada to'ldiradi, folklorning maxsus san'at sifatidagi xususiyatlari va fazilatlarini tushunishga qaratilgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, folklor nazariyasi masalalarini har qanday yoritishni XIX-XX asr olimlarining bizga qoldirgan ajoyib merosiga tayanmasdan turib amalga oshirish mumkin emas. Mubolag'asiz aytamanki, mohiyatan folklor nazariyasining barcha eng muhim masalalari F. I. Buslaev, A. A. Potebnya, A. N. Veselovskiy, ularning izdoshlari va ijodida o'ziga xos tarzda ko'tarilgan va hal etilgan. Tarixiy va folklor asarlarida ham nazariy savollarga javob berildi. Ular maxsus ta'lim sohasini tashkil qiladi. Ular "XIX-XX asrlar fanida folklor nazariyasi muammolari" kitobiga tegishli. [4.].

Markaziy Osiyo tarkibidagi davlatlarning musiqiy folklorshunosligi va ularning ilmiy masalalari yuzasidan o'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki har bir xalqning o'z musiqasi janri va ularning kelib chiqish tarixi

turlichasidir.

Xalq qo'shiqlarini yozib olish tajribasi shuni ko'rsatadiki, yor-yorlar xalq orasida boshqa mazmundagi qo'shiqlardan kengroq ommalashgandir. Yaqin ellik yil atrofida o'tkazgan folklor ekspeditsiyalari davomida o'zbekistonning ko'p viloyatlarida bo'ldik, Janubiy Qozog'istondagi Chimkent, Turkiston hududlari, Tojikistonning Xo'jand, Isfara, Konibodom atrofi, Turkmanistondagi Ko'hna Urganch manzillarida yashayotgan o'zbeklar hamisha folklor amaliyotchilarini yor-yorlar bilan siylashgan. [5.].

Turk xalqining psixologiyasi uning musiqasida aks ettiriladi. Uning musiqasining tinglaganda xalqning yashash tarzlari, uy sharoitlari kayfiyati ko'z oldimizda tasvirlanadi. Masalan tuydukchi ochiq havoda ijro etilgan u juda ko'p tomoshabinlarni to'plagan. Dastlab uning xalq qo'shiqlarini tinglagan u biroz zerikarli va jozibasiz ko'rinadi ammo uni his qilib e'tibor bilan eshitilsa uning chuqur manosini anglab yetish mumkin. Turk xalqning musiqasini yaratishda o'zgacha uslub va janrlarga yondashiladi, sababi turk xalq musiqasida eshituvchida jozibasiz eshitilsa ammo uni diqqat va e'tibor bilan tinglanganda esa turk xalqining barcha hayot tarzi aks etadi. Xulosa qilib aytganda Markaziy Osiyo xalqlarining musiqa madaniyatida folklorshunoslikning ilmiy jihatlari ko'plab olimlar tomonida tahlil qilingan va ilmiy uslubiy masalalari bo'yicha bu tadqiqot ishi birinchi tadqiqotlar tahlili hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Folklor etnografik ansambllari. S.Yo'ldoshev, G.Sattorova. 2007. B. 306
2. A.Jabborov, S.Begmatov, M.Azamova. o'zbek musiqasin tarixi. T.: «Fan va texnologiya», 2018. 204 bet.
3. O'zbek xalq og'zaki ijodi: O.Safarov. — T.: Musiqa, 2010. 368 b.
4. Фольклори композитор. Теоретические этюды . Л.«Советский композитор», 1977

5. O'zbek xalq og'zaki ijodi. O.Madayev. Toshkent. 2010 "Mumtoz so'z". 234 b.
6. P.Q.Berdiyevich. Uzbek Family Ceremony Music and Its Description of Genre - International Journal of Trend in Scientific Research.
7. Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal / <http://oac.dsmi-qf.uz>
8. Yuldoshev, U. Y. (2021). PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL APPROACHES TO THE PROFESSIONAL PREPARATION OF THE FUTURE MUSIC TEACHER. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(10), 56-61.
9. Yuldoshev, U. (2023). EFFECTIVENESS OF SPIRITUAL AND ETHICAL EDUCATION OF STUDENTS THROUGH CULTURAL AND ARTISTIC EVENTS. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 3(12), 342-345.
10. Юлдошев, У. Ю. (2019). Музыка укитувчиси мутахассислигининг замонавий модели ва профессиограммаси. Современное образование (Узбекистан), (9 (82)), 47-53.
11. <https://ru.scribd.com>